

MADANIY YODGORLIKLARIMIZGA BEFARQ EMASMIZ

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy
rassomlik va dizayn instituti
“Muzei menejmenti va madaniy turizm”
yoʻnalishi 2-bosqich talabasi
Ergasheva Shaxista Abduragim qizi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tarixiy-madaniy meroslarimizni yanada yaxshi saqlanishiga sharoit yaratib, qadim tariximizdan ajralmagan holda turizmni rivojlantirishga doir masalalarga bagʻishlanadi.*

Kalit soʻzlar: *madrasa, xonaqoh, tarixiy-madaniy obyekt, maktabxona, turizm.*

Аннотация: *Данная статья посвящена вопросам, связанным с развитием туризма без отрыва от нашей древней истории, созданием условий для лучшего сохранения нашего историко-культурного наследия.*

Ключевые слова: *медресе, дом, историко-культурный объект, школа, туризм.*

Abstract: *This article is devoted to issues related to the development of tourism without separating from our ancient history, creating conditions for better preservation of our historical and cultural heritage.*

Key words: *madrasa, house, historical and cultural object, school, tourism.*

Oʻtgan davrda sobiq sovet hukumatining mamlakatimiz va boshqa ittifoq davlatlarida bir asrdan ortiq davom etgan hukmronligi oʻz tarixiy davlatchiligiga ega boʻlgan Turkistonni mustamlaka va qaramga aylantirgani hech kimga sir emas. Shu vaqt mobaynida, siyosiy tazyiqlar orqali mamlakatning diniy qadriyatlariga oid qarashlari nazoratda ushlandi va cheklandi. Biroq, xalqning maʼnaviyati va qadriyatlariga boʻlgan xotirasi, shu qatori qarashlarini butunlay yoʻq qila olmadi.

Mustaqillikning sharofati bilan qoralangan davlat tarixi, anʼana va qadriyatlarimiz tiklandi, qayta yozildi, diniy erkinlik qaytarildi. Milliy qahramonlar oqlandi. Moddiy va nomoddiy meros ilmiy oʻrganila boshlandi. Bu barcha sohalarda boʻy koʻrsata boshladi.

Jumladan, ayniqsa, tarixiy qadriyatlar, milliy tarix, qahramonlar va anʼanalar, moddiy va nomoddiy madaniy meros, mumtoz adabiyotning hamisha barhayotlilikini taʼminlashda, yurt yosh oʻgʻil-qizlariga kim ekanliklarini anglatishda, mamlakatning tarixiy madaniy qatlamiga tegishli boʻlgan mavzular, (har bir) sohada dolzarb hisoblanadi⁵⁰.

Qadim tarixdan soʻz ochuvchi madaniy boyliklarimizdan biri, albatta, binolarimizdir. Bularning orasida meʼmoriy yodgorliklarimizdan biri Toshkent shahrida joylashgan Abulqosim madrasasi hisoblanadi. Ushbu madrasa XIX asrga oid meʼmoriy obyekt

⁵⁰ F.Mamajonova. “OʻZBEKISTON ZAMONAVIY RANGTASVIRIDA SHARQ MUMTOZ SHEʼRIYATINING TAʼSIRI”. Dissertatsiya. Toshkent 2023.

hisoblanadi va u madrasa, masjid, xonaqohlarni o'z ichiga oladi. Abulqosim madrasasining nomi uni qurdirishga sababchi bo'lgan shayx nomi bilan atalgan. Abulqosimxon eshon 1892-yil Toshkentda tarqalgan vabo tufayli vafot etgach, madrasada uning o'g'li Hoshimxon eshon mudarrislik qiladi⁵¹. Mazkur obyekt O'rta Osiyo me'moriy uslubida qurilgan. Madrasadagi har bir eshiklarning naqshlari o'zgacha, o'ziga xos uslubiy tarzda bezatilgan. O'ratepalik Usta Hasanboy o'z mohirligini ishga solib, madrasadagi eshiklarni o'yma naqshlar bilan bezagan. Bu o'yma naqshli yog'och eshiklar hali-hanuz saqlanib kelinmoqda.

Madrasaning o'rta qismida hovli joylashgan bo'lib, hozirgi vaqtda mevali daraxtlarimizdan: o'rik, tut daraxtlari mavjud. Hovli qismiga madrasaning ham oldi, ham orqa tomonlaridan kirish mumkin. Madrasa dastlab, bir qavatli bino bo'lgan, keyinchalik ikki qavatli qilib qayta qurilgan. 1820-yili me'moriy obyektida dastlabki eski binolardan Mo'yi Muborak xonaqohi bunyod etilgan, 1850-yilda esa madrasa qurilgan. Binoni bezashda asosiy e'tibor uning peshtoq qismiga qaratilgan, peshtoqning balandligi 16 m bo'lgan. Shuningdek, darsxona, maktabxonalar ham mavjud bo'lgan. Keyinchalik hovli qismiga qurilgan hovuz, hammomlar 1940-yilda buzib tashlangan va hozirda mavjud emas. Mazkur tarixiy-madaniy meros 1979-yilda qayta ta'mirdan chiqariladi. Uning ta'mirlash ishlarida mashhur ustalarimizdan X.Nishonov, A.Solihov, O.Polvonovlar o'zlarining bor salohiyati va mahoratlari bilan ishtirok etishadi. Mustaqillikdan keyingi yillarda ham madrasaga e'tibor qaratilib, ko'rkiga ko'rk qo'shilgan holda ta'mirlandi.

Yurtimizning ardoqli adiblaridan biri, sobiq sovet davrida qatag'on qurbonlaridan biri bo'lgan, xalqimiz sevib mutolaa qiluvchi o'sha mashhur "O'tkan kunlar" romani muallifi Abdulla Qodiriy aynan shu Abulqosim madrasasida tahsil olgan. Abdulla Qodiriy bilan birga uning tengdoshlari G'ulom Zafariy, Munavvar qori Abdurashidxonovlar ham shu dargohda o'qib, ilm olib, millat ziyolilari qatorida o'z o'rniga ega bo'lgan. Barchamizga "Dunyoning ishlari", "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" kabi asarlari bilan xalqimiz qalbidan joy olgan, sevimli yozuvchi O'tkir Hoshimov Abulqosim eshonning o'g'li Hoshimxonning zurriyoti, ya'ni eshonning nabirasi hisoblanadi⁵².

Hozirgi kunda Abulqosim madrasasi O'zbekiston tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish jamiyati tomonidan muhofaza qilinadi.

Madrasada ayni shu onlarda 50 dan ziyod ustalar faoliyat olib bormoqda. Ular yonlariga shogird olib, o'z hunarlarini o'rgatib, avlodlar davomiyligini ta'minlab kelmoqda. Bu yerda turli xil qo'l mehnati namunalari mavjud. Biroq shuni afsus bilan aytish joizki, madrasa bugun qarovsiz holda qolgan. Axir shunday tarixiy-madaniy obyektlarimiz asrab-avaylanmay, e'tiborsiz tashlab qo'yilaversa, oxir-oqibat ularning taqdiri nima bo'ladi? Mamlakatimiz tarixi haqida so'zlaydigan bundayin yodgorliklarimiz kamayib, yo'qolib ketmaydimi? Tarixi bor yurtning ertasi bordir! Ota-bobolarimizdan qolgan bunday noyob yodgorliklarni ehtiyotlab, ajdodlarimizga munosib avlod bo'lishdek sharafga ega

⁵¹ <https://shosh.uz/toshkent-madrasalari-abulqosim-madrasasi/>

⁵² <https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/abulqosim-madrasasi-uz/>

ekanimizdan faxrlanib yashashimiz kerak emasmi? Ha, to'g'ri, yurtimizda qayta tiklanib, ularning qatoriga yangi qurilayotgan tarixiy-madaniy yodgorliklarimiz ham kam emas, ammo bu kabi necha yillik obyektlarimizni ham ko'zdan qochirmasligimiz lozim. Mamlakatimizda qancha ko'p yodgorliklar bo'lsa shuncha yaxshi-ku, axir ular davlatimiz ravnaq topishi uchun kelajak avlodga o'z tariximizdan so'zlaydi. U xoh buyum bo'lsin, xoh inshoot obyekti, har birimiz asray bilishimiz kerak. O'z tariximizni o'zimiz hurmat qilmasak, boshqalardan yana nima kutamiz? Bu o'z navbatida mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish uchun ham katta ahamiyatga ega deb bilaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.Mamajonova. "O'ZBEKISTON ZAMONAVIY RANGTASVIRIDA SHARQ MUMTOZ SHE'RIYATINING TA'SIRI". Dissertatsiya. Toshkent 2023.
2. <https://shosh.uz/toshkent-madrasalari-abulqosim-madrasasi/>
3. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/abulqosim-madrasasi-uz/>